



№4

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



**ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026**

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
2.	Умарова Зумрад Низомиддин кизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: таъминотлар, усуллар ва замонавий ёндашувлар	13
3.	Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o'rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda monetar siyosatning roli	25
4.	Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32





QASHQADARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Sharipov G‘ulomjon Qarshi o‘g‘li

*Neft-gaz va geologiya fakulteti
dekan o'rinbosari i.f.f.d.(PhD)
Qarshi davlat texnika universiteti
E-mail: gulom_5333@icloud.com
ORCID:0009-0032-4559-2014*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining amaldagi holati kompleks tahlil qilinib, hududning ekologik-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari baholangan. Tadqiqot davomida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, resurslar samaradorligi, ekologik investitsiyalar, chiqindilarni boshqarish hamda yashil infratuzilmani rivojlantirish holati statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolar aniqlanib, hududda ekologik barqarorlikni ta’minlash va yashil transformatsiyani jadallashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish va Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, Qashqadaryo viloyati, barqaror rivojlanish, ekologik investitsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, resurslar samaradorligi, yashil infratuzilma, ekologik boshqaruv, hududiy rivojlanish, statistik tahlil.

CURRENT STATUS AND DEVELOPMENT PROSPECTS OF GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN KASHKADARYA REGION

Sharipov Gulomjon Karshi ugli

*Deputy Dean of the Faculty of
Oil and Gas and Geology i.f.f.d.(PhD
Karshi State Technical University
E-mail: gulom_5333@icloud.com
ORCID:0009-0032-4559-2014*

Abstract. This article assesses the current state of green economy development in the Kashkadarya region through a comprehensive analysis of its environmental and economic indicators. The study examines renewable energy development, resource efficiency, green investments, waste management, and green infrastructure using official statistical data. It also identifies the main challenges hindering the regional green transition and proposes practical recommendations aimed at strengthening environmental sustainability and accelerating green economic development. The findings provide scientific and practical guidance for improving regional governance and promoting the green economy in the Kashkadarya region.

Keywords: green economy, Kashkadarya region, sustainable development, green investment, renewable energy, resource efficiency, green infrastructure, environmental governance, regional development, statistical analysis.

ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Шарипов Гуломжон Карши угли

*и.ф.ф.д. (кандидат наук)
заместитель декана факультета*





нефти и газа и геологии
Карийский государственный
технический университет
E-mail: gulom_5333@icloud.com
ORCID:0009-0032-4559-2014

Аннотация. В статье проведена комплексная оценка современного состояния развития зелёной экономики в Кашкадарьинской области на основе анализа экологических и экономических показателей региона. Исследованы развитие возобновляемой энергетики, эффективность использования ресурсов, зелёные инвестиции, управление отходами и развитие зелёной инфраструктуры с использованием официальных статистических данных. Выявлены основные проблемы, сдерживающие развитие зелёной экономики, и предложены практические рекомендации по обеспечению экологической устойчивости и ускорению зелёной трансформации региона. Полученные результаты могут быть использованы для совершенствования регионального управления и реализации политики устойчивого развития.

Ключевые слова: зелёная экономика, Кашкадарьинская область, устойчивое развитие, зелёные инвестиции, возобновляемая энергетика, эффективность использования ресурсов, зелёная инфраструктура, экологическое управление, региональное развитие, статистический анализ.

Kirish

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda aholining hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan ustuvor rivojlanish modeli sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu model ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarida energiya hamda resurslar samaradorligini oshirish, chiqindilar hajmini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va yangi "yashil" ish o'rinlarini yaratishni nazarda tutadi. Shu jihatdan yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal etish vositasi, balki hududlarning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Global iqlim o'zgarishi, atmosfera havosi ifloslanishining kuchayishi, suv va yer resurslarining cheklanganligi, biologik xilma-xillikning qisqarishi hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash zarurati hududlarda yashil iqtisodiyot tamoyillarini izchil joriy etishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi, sanoat va tabiiy resurslardan foydalanishga bevosita bog'liq bo'lgan hududlarda ekologik va iqtisodiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, hududlarning yashil rivojlanish darajasini baholash, mavjud resurs salohiyatini aniqlash, ekologik cheklovlar va iqtisodiy imkoniyatlarni o'zaro bog'liq holda o'rganish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish, energiya va suv tejankor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish, yashil hududlarni kengaytirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar hududlarning tabiiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslar sarfini kamaytirish va ekologik xavflarning oldini olishga qaratilgan. Biroq hududlar kesimida yashil iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, mavjud infratuzilma, investitsion salohiyat, ekologik muammolar va institutsional imkoniyatlar bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Xususan, Qashqadaryo viloyati sanoat, energetika, neft-gaz, qishloq xo'jaligi va transport sohalari rivojlangan hududlardan biri bo'lib, uning iqtisodiy faoliyati tabiiy resurslardan intensiv foydalanish bilan tavsiflanadi. Viloyatda quyosh energiyasidan foydalanish, suv va yer resurslarini tejash, ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash hamda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha katta





salohiyat mavjud.

Adabiyotlar sharhi

So‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Tadqiqotchilar yashil iqtisodiyotni iqtisodiy o‘shirish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni uyg‘unlashtiruvchi rivojlanish modeli sifatida baholab, uning asosiy yo‘nalishlari sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va yashil investitsiyalarni kengaytirishni e’tirof etadilar [1; 2]. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida hududlarning o‘rni alohida ta’kidlanadi. OECD ekspertlari yashil transformatsiyaning muvaffaqiyati hududiy boshqaruv tizimi, yashil infratuzilma, ekologik investitsiyalar va institutsional islohotlarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqligini asoslab berganlar [3]. UNECE hisobotida esa O‘zbekistonda ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish va hududlarda tabiatga asoslangan yechimlarni keng joriy etish yashil rivojlanishning ustuvor vazifalari sifatida qayd etilgan [4]. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning nazariy va amaliy jihatlari bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularda yashil iqtisodiyotga o‘tish bosqichlari, energiya samaradorligini oshirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaralari tahlil qilingan [5; 6]. Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotning ayrim yo‘nalishlari, jumladan ekologik va yashil texnologiyalarga investitsiyalarni jalb etish, sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanish hamda hududning ekologik salohiyatini oshirish masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar mavjud. Ushbu tadqiqotlarda hududning tabiiy resurs salohiyati yuqori bo‘lishiga qaramasdan, yashil texnologiyalarni joriy etish, ekologik investitsiyalar hajmini oshirish va resurslardan samarali foydalanish darajasi yetarli emasligi qayd etilgan [7; 8]. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanish dinamikasi, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlari tahlil qilinib, hududlar kesimida ekologik ko‘rsatkichlarni baholash, yashil moliyalashtirishni rivojlantirish hamda mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan [9; 10]. Biroq Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining amaldagi holatini kompleks statistik baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining amaldagi holatini baholashda kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, statistik tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullari qo‘llanildi. Qashqadaryo viloyatining yashil iqtisodiyot ko‘rsatkichlari respublika miqyosidagi ma’lumotlar hamda xalqaro amaliyot bilan taqqoslanib, hududning rivojlanish tendensiyalari va mavjud muammolari baholandi. Tahlil uchun O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Energetika vazirligi, Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi hamda OECD, UNEP va Jahon bankining 2020–2025-yillarga oid rasmiy statistik ma’lumotlari va analitik hisobotlaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va amaliy takliflari ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslarga boy, quyosh radiatsiyasi yuqori hamda sanoat va qishloq xo‘jaligi salohiyati kuchli hududlardan biri hisoblanadi. Shu bois viloyatda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki hududning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. So‘nggi yillarda qayta





tiklanuvchi energiya, energiya tejamkor texnologiyalar va ekologik loyihalarni rivojlantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayapti (1-jadval).

1-jadval.

Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotning ayrim ko'rsatkichlari dinamikasi (2020–2024-yillar)⁵

<i>Ko'rsatkich</i>	2020	2021	2022	2023	2024
<i>Yashil investitsiyalar ulushi, %</i>	5,8	6,5	7,9	9,8	11,6
<i>Qayta tiklanuvchi energiya ulushi, %</i>	3,2	3,9	4,8	6,1	7,5
<i>Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etgan korxonalar ulushi, %</i>	18	22	27	33	39
<i>Chiqindilarni qayta ishlash darajasi, %</i>	12	15	18	22	26
<i>Ekologik loyihalar soni, ta</i>	34	41	49	57	68

Qashqadaryo viloyati iqtisodiy salohiyati, tabiiy resurslari va geoiqtisodiy joylashuvi jihatidan O'zbekistonning strategik hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda yoqilg'i-energetika, neft-gaz, kimyo, qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanganligi yashil iqtisodiyot tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish uchun muhim zamin yaratadi. Ayniqsa, hududning quyosh radiatsiyasi yuqori bo'lgani sababli qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlari respublikaning ko'plab hududlariga nisbatan yuqori baholanadi. So'nggi yillarda viloyatda energiya samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmogda. Xususan, sanoat korxonalarida energiya tejamkor uskunalarni joriy etish, qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarni kengaytirish hamda quyosh elektr stansiyalarini barpo etish bo'yicha loyihalar hududning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirmogda. Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar yashil iqtisodiyotning ayrim yo'nalishlari bo'yicha tizimli muammolar mavjudligini ham ko'rsatadi. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy energiya ishlab chiqarishdagi ulushi hali ham yetarli darajaga yetmagan. Chiqindilarni saralash va qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanish sur'atlari hududning sanoat salohiyatiga nisbatan pastligicha qolmogda. Bundan tashqari, ko'plab kichik va o'rta biznes subyektlarida energiya samaradorligi bo'yicha zamonaviy texnologiyalarning joriy etilish darajasi yetarli emas.

2-jadval.

Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy muammolari va taklif etilayotgan yechimlar⁶

Aniqlangan muammo	Taklif etilayotgan yechim
Yashil investitsiyalar hajmi yetarli emas	Yashil obligatsiyalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish
Quyosh energiyasi salohiyatidan to'liq foydalanilmayapti	Hududlarda quyosh elektr stansiyalari va mikro-generatsiya loyihalarini kengaytirish
Chiqindilarni qayta ishlash darajasi past	Zamonaviy qayta ishlash majmualarini tashkil etish va xususiy sektorni rag'batlantirish
Korxonalarda energiya samaradorligi past	Energiya auditi va "yashil" texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash
Ekologik monitoring tizimi yetarli darajada raqamlashtirilmagan	GIS va raqamli monitoring platformalarini joriy etish

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun tabiiy va iqtisodiy salohiyat yetarli. Biroq ushbu salohiyatdan samarali

⁵ Muallif ishlanmasi

⁶ Muallif ishlanmasi





foydalanish uchun yashil moliyalashtirishni kengaytirish, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini ko'paytirish, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish hamda ekologik monitoringni raqamlashtirish zarur. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi hududning ekologik barqarorligini mustahkamlash, investitsion jozibadorligini oshirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga keng joriy etishga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy modeli sifatida ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy samaradorlikni o'zaro uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. Mazkur yondashuv an'anaviy iqtisodiy o'sish modelidan farqli ravishda tabiiy resurslarni saqlash, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish hamda aholining turmush sifatini yaxshilashni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Shu sababli yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bugungi kunda nafaqat ekologik siyosatning, balki hududiy rivojlanish strategiyalarining ham ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Hududiy rivojlanish nuqtai nazaridan yashil iqtisodiyotning samaradorligi hududning tabiiy resurs salohiyati, ishlab chiqarish tarkibi, investitsion muhiti, innovatsion faolligi hamda mahalliy boshqaruv organlarining institutsional imkoniyatlariga bevosita bog'liq. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot tamoyillari hududiy boshqaruv tizimiga integratsiya qilingan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari, resurslardan foydalanish samaradorligi va ekologik barqarorlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash hamda ekologik innovatsiyalarni qo'llash hududlarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillar sifatida e'tirof etilmoqda.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan respublikaning strategik hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyat mamlakatdagi yirik yoqilg'i-energetika, neft-gaz, kimyo va qurilish materiallari sanoati markazlaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ham muhim o'rin egallaydi. Bunday iqtisodiy tarkib bir tomondan hududning iqtisodiy salohiyatini oshirsa, ikkinchi tomondan tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha yangi yondashuvlarni talab qiladi. Shu bois yashil iqtisodiyot tamoyillarini viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilish barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Viloyatning tabiiy-iqlim sharoiti yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Xususan, quyosh radiatsiyasining yuqori darajasi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi chiqindilaridan bioenergiya ishlab chiqarish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish va ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyatlari ham mavjud. Ushbu omillar hududning yashil transformatsiyasini jadallashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun muhim zamin yaratadi. Shu bilan birga, tahlillar yashil iqtisodiyot rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan qator omillar mavjudligini ham ko'rsatadi. Jumladan, ayrim sanoat korxonalarida energiya sarfining yuqoriligi, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarining yetarli darajada joriy etilmaganligi, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanmaganligi hamda yashil investitsiyalar hajmining cheklanganligi hududning yashil rivojlanish sur'atiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, mahalliy darajada ekologik monitoring tizimining to'liq raqamlashtirilmaganligi va yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlarini baholashning yagona metodikasining mavjud emasligi boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini pasaytirmoqda. Hududiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotning rivojlanish darajasi iqtisodiy, ekologik va institutsional omillarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Agar ushbu omillar kompleks tarzda rivojlantirilsa, hududning investitsion jozibadorligi ortadi, ishlab chiqarishning ekologik samaradorligi yaxshilanadi va aholi turmush sifati oshadi. Shu nuqtai nazardan, Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishni baholashda faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, resurslardan foydalanish samaradorligi, ekologik xavfsizlik, yashil innovatsiyalar va boshqaruv samaradorligini ham kompleks ravishda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.





Xulosa

Mazkur tadqiqotda Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining amaldagi holati beshta asosiy yo‘nalish bo‘yicha baholandi: qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, resurslardan foydalanish samaradorligi, yashil investitsiyalarni jalb qilish, ekologik infratuzilmani rivojlantirish hamda hududiy boshqaruvning institutsional samaradorligi. Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilgan tahlillar hududning mavjud salohiyatini aniqlash, rivojlanishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni baholash va istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi. Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar asosida Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy drayverlari sifatida quyosh energetikasini kengaytirish, sanoatda energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda yashil moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Mazkur yo‘nalishlarni kompleks rivojlantirish nafaqat hududning ekologik holatini yaxshilaydi, balki iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini jadallashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududning investitsion jozibadorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vahobov A.V., Xojibakiyev Sh.X. va boshq. Yashil iqtisodiyot: darslik. – Toshkent: Universitet, 2020. – 352 b.
2. Kalandarova E.M. Priority Areas of Development of "Green Economy" in Uzbekistan // Akademicheskoe issledovaniya v sovremennoy nauke. – 2024. – Vol. 3, № 6. – B. 110–112.
3. OECD. Financing Uzbekistan's Green Transition: Capital Market Development and Opportunities for Green Bond Issuance. – Paris: OECD Publishing, 2023.
4. UNECE. Fourth Environmental Performance Review of Uzbekistan. – Geneva: United Nations Economic Commission for Europe, 2026.
5. Khashimova S.N., Abdikarimova A.A. Stages of Development of "Green Economy" in Uzbekistan // British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – 2024. – Vol. 29.
6. Doniyorova Z. Green Economy in Uzbekistan: Essence, Principles, and Perspectives // American Journal of Public Diplomacy and International Studies. – 2024. – Vol. 2, № 7. – B. 18–25.
7. Meylikov F., Buriyev Sh. Qashqadaryo viloyatida ekologik va yashil texnologiyalarga kiritilayotgan investitsiyalar // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – Vol. 3, № 4.
8. Ochilov A., Xazratov S. O‘zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida) // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – Vol. 2, № 9.
9. Utegenova S., Khaliqnazarova G. State, Dynamics and Problems of Development of the "Green" Economy in the Republic of Uzbekistan // Modern Science and Research. – 2024. – Vol. 3, № 9.
10. Yo‘ldoshev O.A. Priority Directions for the Development of Green Economy in Uzbekistan // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – Maxsus son.

